

## ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDAGI BAHORGİ ISHLARNING OİLALAR MAHSULDORLIGIGA TA'SIRI

A. K. Tleumuratov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik  
va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali doktoranti q-x.f.d (PhD)

D. SH. Sernazarova

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik  
va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada asalarilarning bahorgi ishlarini tug'ri tashkil qilish va asalari oilalariga qoshimcha oziqlar berish keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** asalari, asal, sharbat, sut, shakar quyomi,

### Summary

This article presents the correct organization of the spring work of bees and the provision of additional food to bee colonies.

**Key words:** bees, honey, juice, milk, season, sugar syrup

**Mavzuning dolzarbliji.** Ma'lumki, Respublikamizda asalarichilik hozirgi kunda etakchi tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda, mahalliy populyatsiyadagi asalari oilalarini genetik salohiyatidan keng foydalanib, yuqori mahsuldor oilalar yaratish, alohida ilmiy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, ularning mahsuldorligini oshirishga ta'sir etuvchi muhit omillarni o'rGANISH lozim. Shuningdek, asalari oilasini o'sishi va rivojlanishi, ona asalari etishtirish usullariga rioya etmaslik, asosan, ko'ch ona asalarilardan foydalanish hamda respublikamizning tabiiy iqlim sharoitiga e'tibor bermaslik, hamda erta bahorda qishdan chiqqan asalari oilalariga va nasilchilik ishlariga itibor berish bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizning tabiiy iqlim sharoiti qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish, asalari oilalarini zamonaviy ilg'or texnologiyalar asosida boqib, asalarichilik mahsulotlari etishtirishni ko'paytirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Asalarichilik mahsulotlaridan asal, mum, gulchang, propolis, asalari suti va zahri nihoyatda qimmatbaho ne'matlar bo'lib, ular inson salomatligi, tibbiyat sohasi va farmatsevtika sanoati uchun juda noyob xomashyo sanaladi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16-oktyabrdagi PQ-3327 "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida. Asalarichilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, tarmoqda naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, asalarichilik xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada ko'paytirish, asalni qayta ishslash bo'yicha zamanoviy texnologiyalarni joriy etish, sohaningeksport salohiyatini oshirish, shuningdek, asalarichilik sohasidagi ilg'or tajriybalarni respublikamizning barcha xududlarida tatbiq etish maqsadida prezident qarori chiqdi. Ishlab chiqilgan ushbu dastur O'zbekistonda asalarichilikni rivojlantirishga mo'ljallangan dasturi bo'lib, u asalarichilarimiz oldida turgan muhim vazifalarning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan va ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan.

**Ishning maqsadi.** Asalarichilik xo'jaliklaridagi bahorgi ishlarni samarali olib borish, asalarichilikda mahalliy noyob asalari populyatsiya genofondini sof holda saqlab qolish, ko'paytirish, tanlash va selektsiya ishlarini yo'lga qo'yish.

**Tajriba uslubi.** Bizning tajriba o'tkazilayotgan asalarizor Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani, Beruniy urmon xo'jaligining asalarichilik maydonchasinda 2023 yildan boshlab hamkorlikda olib borildi. Tadqiqot davrida bir hillik asosida tajriba va nazorat guruhlari tashkil etildi. (10 tadan)

**Tajriba natijalari.** Bahor fasli asalari oilalarini parvarish qilish uchun asosiy ishlar qilinadigan mavsum bo'lib hisoblanadi. Bahor faslda asalari oilalarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Ari uyasini umumiy tekshirish, ko'zdan kechirish;
2. Uyaning taglik qismi va ichki xajmini dog' va chiqindilardan tozalash;
3. Uya romlarini dezinfektsiya qilish;
4. Bahorgi taftish o'tkazish;
5. Uyaning ichki xajmini kengaytirish;
6. Arilarni shakar sharbati bilan boqish;
7. Qishlab chiqqan arilarni almashtirish.

Ari oilasining bahorgi rivojlanishida 3 ta o'ziga xos davrni ko'rish mumkin:

1. Qishlab chiqqan arilarning o'rnini almashish davri.
2. Ari oilasining jadal rivojlanish davri
3. Ko'p sonli ishsiz qolgan yosh arilarning to'planib qolgan davri.

Asalari oilalarini oziqlantirishda uning ozuqasi tarkibiga qushimcha ozuqalar qo'shish, ularni o'sish va rivojlanishini tezlashtiradi hamda asal mahsuldarligi yuqori bo'ladi. Ma'lumki, oilada ona ari yirik va yaxshi rivojlangan bo'lsa, u ko'proq tuxum qo'yadi va bu tuxumlardan ko'plab asalarilar etishib chiqadi. Asalari oilalarini tarbiyalash uchun oqsillar oziqalar va shakar sharbati bilan oziqlantirish katta ahamiyatga ega. Shakar sharbati quyidagicha tayyorlanadi: oldin 1 kg shakar, 0,5 l suvda eritilib, qiyom

tayyorlanadi. Qiyomni asalari oilalariga berishdan oldin har 1 kg shakar sharbatiga 0,5% sut yoki poroshok qo'shib, asalari oilalariga beriladi.

### **1-jadval Qo'shimcha oziqalar bilan oziqlantirilgan asalarilar oilasining mahsuldorligi**

№	Ko'rsatkichlar	Asal mahsuldorligi, kg		Qurilgan mum kataklar soni, dona	
		27 aprel	26 may	27 aprel	26 may
1	Shakar sharbati berib oziqlantirilgan oilalar	17	12	4250	4050
2	Shakar sharbatiga 0,5% sut qo'shib oziqlantirilgan oilalar	19,2	14	4600	4360

Jadval ma'lumotlari ko'ra, 27 aprelda tashkil qilingan shakar sharbati berib boqilgan oilalar o'rtacha 17,0 kg asal yig'ishgan bo'lsa, shakar sharbatiga 0,5% sut qo'shib oziqlantirilgan oilalar 19,2 kg asal to'plangan. Xuddi shuningdek, mum katak inchalarni qurishda ham qo'shimcha sut iste'mol qilgan oilalar yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan, bu ma'lumotlar O.To'raevning 2006 yilgi ma'lumotlariga to'g'ri keladi.

### **2-jadval Shakar sharbati va sut qo'shimcha ozuqaning ona ari sifatiga ta'siri**

№	Ona ari chiqarilgan kun	Oilaga beriladigan qushimcha ozuqalar miqdori	Ona arining tirik vazni, mg
1.	27 aprel	Qo'shimcha oziqasiz	182
		Toza sutli oziqa	187
2.	26 - may	Qo'shimcha oziqasiz	170,4
		Toza sutli oziqa	179,6

Jadval ma'lumotlariga ko'ra 27 aprelda tashkil qilingan oilalardagi toza yog'i olinmagan sut bilan oziqlantirilgan ona arining tirik vazni 187 mg bo'lgan bo'lsa, qo'shimcha oziqasiz 182 mgni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichlar 26 mayda tashkil qilingan oilalarda 179,6 – 170,4 mg ni tashkil qildi.

### **3-jadval Asalari oilalari va ulardan tashkil etilgan yangi oilalarning asal mahsuldorligi**

№	Ko'rsatkichlar	Asosiy oila	Yangi tashkil etilgan oilalar	
			27 aprel	26 may
1	Oilalar soni	10	10	10
2	Yopiq nasllar soni	126	120	96,7
3	Olingan asal miqdori, kg	35,3	37	29,8
4	Asosiy oilaga nisbatan, %	100	104,8	84,4

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 27 aprelda tashkil qilingan oilalarning yopiq nasllari soni 120 ming va 26 mayda tashkil qilingan oilalarning yopiq nasllar soni 96,7 mingni tashkil qiladi. Asosiy oilalarda 35,3 kg asal olingan bo'lsa, 27 aprelda tashkil qilingan oilalarda 37 kg bo'lgan, bu esa 26 mayda tashkil qilingan oilalarga nisbatan 8,8 kg yoki 20,4 % ustun ekanligidan dalolat beradi. Demak, asalari oilalari qancha vaqtli tashkil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi va asalari oilalarining mahsuldorligi yuqori bo'ladi.

## Xulosalar

O'zbekiston sharoitida asalarilar asosan 20-24 romli yotoq yalarda asraladi, sababi yotoq uyalarda issiq iqlim sharoitiga moslashgan tom osti qurilmasining mayjudligi va u erda zaxira havo bo'lishi bo'lib hisoblanadi.

27 aprelda tashkil qilingan shakar sharbatি berib boqilgan oilalar o'rtacha 17,0 kg asal yig'ishgan bo'lsa, shakar sharbatiga 0,5% sut qo'shib oziqlantirilgan oilalar 19,2 kg asal to'plangan. Xuddi shuningdek, mum katak inchalarni qurishda ham qo'shimcha sut iste'mol qilgan oilalar yuqori ko'rsatkichga ega bo'lган

27 aprelda tashkil qilingan oilalardagi toza yog'i olinmagan sut bilan oziqlantirilgan ona arining tirik vazni 187 mg bo'lган bo'lsa, qo'shimcha oziqasiz 182 mgni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichlar 26 mayda tashkil qilingan oilalarda 179,6 – 170,4 mg ni tashkil qilgan.

Fermer xo'jaliklarida asalarichilikni bahorgi ishlarini tug'ri tashkil etishni va asalarichilik mahsulotlarini oshirish uchun ho'jaliklarda bajariladigan mavsumiy ishlarni o'z vaqtida bajarishni va maxalliy populatsiyadagi asalarilardan samarali foydalanishni taklif qilamiz

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16-oktyabrdagi PQ-3327 "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida
2. Avizov A.G.- Turli omillarning asalari maxsuldarligiga ta'siri. Trudi. TashGAU-2008.
3. Akmalxonov Sh.A., Bo'riboev Sh.M., Xodjaev N.T. – Chorvachilikda tabiiy gilvatalardan foydalanishga oid tavsiyanoma. 2007 , Toshkent .
4. Amonov A, Belenko B., Juraev J. - Produktivnost semey i vivod matok. J.. "Pchelovodstvo", 1992, № 9-12, str.11.
5. Avetisyan G.A. Cherevko Yu.A. «Pchelovodstvo» 2001.